
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

Boshlang‘ich kasbiy ta’lim darajasi

Umumta’lim fan



Ona tili va adabiyot fanidan namunaviy o‘quv dasturi

Toshkent-2025

Mazkur umumta’lim fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etildi.

Tuzuvchilar:

Shayxontohur tuman politexnikumi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi	Sultanova Shahodat Yusupovna
Shayxontohur tuman politexnikumi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi	Xaligitova Iroda Amirkulovna
Professional ta’limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi	Muzaffarov Asqar Mag‘rubovich

ONA TILI FANI TAVSIFI VA INTEGRATSIYASI

Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan kasbiy ta’lim tashkilotlar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman), rus tili (ta’lim rus va o‘zbek tilida olib boriladigan kasbiy ta’lim tashkilotlar uchun) o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi.

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea- hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Adabiyot so‘z san’atidir, shu sababli ona tilini puxta o‘zlashtirmasdan turib, adabiyotning go‘zalligi va qudratini anglab bo‘lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchida so‘zga qiziqish va e’tibor hissini muntazam sur’atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqea-hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi. Bu bilan o‘quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ona tili, adabiyot hamda o‘zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lagan holda o‘qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘laydi va o‘quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o‘quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o‘rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Yosh avlod ma’naviyatini rivojlantirish o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an’ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik-

uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Til o‘rganishda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich va Kasbiy bosqichlarida til ta’limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchida til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish.

O‘zbek tili fani kasbiy ta’limning, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan kasbiy ta’lim tashkilotlarida ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Ushbu fan ta’limi mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga mo‘ljallangan, bu o‘quvchining o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma shaklda erkin muloqot yurita olishini ta’minlash asosida amalga oshiriladi. O‘quvchining kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvistik kompetensiyalar o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini-o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini

turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko‘zda tutadi.

Adabiyot fani milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini bilish asosida o‘quvchining ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantiradi hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o‘quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchining ma’naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Matematika faniga doir masala, misol, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Masalan, topshiriqlar gaplar vositasida ifodalanadi. Gap qurilishini esa, shubhasiz, ona tili fani o‘rgatadi. Fanga oid matnlarni tinglab tushunish, mantiqiy fikrlash orqali matematik o‘lchov va hisob- kitoblar bilan bog‘liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o‘tkazish jarayonida eng maqbul yechimni topa olish va to‘g‘ri qaror qabul qilish malakalari rivojlantiriladi.

Fizika va astronomiya faniga doir masala, formula, matnlarni o‘qib tushunish ushbu fan tushuncha va hodisalarini – bu fan ramzlari va amaliyotlarini to‘g‘ri yozish va o‘qish orqali qanchalik to‘g‘ri va ongli uqqanligi yoki uqmaganligini ham ko‘rsatib turadi. Fanga oid matnlarni o‘qish jarayonida o‘quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Kimyo faniga oid matnlarni, terminlarni, atamalarni o‘zlashtirish, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Fanga oid matnlarni to‘g‘ri o‘qish va tinglab tushunish orqali o‘quvchi moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro‘y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarni biladi. Kimyoviy birikmalarning farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkibining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Kimyoviy moddalar hamda maishiy kimyo mahsulotlaridan ehtiyokorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o‘tkazish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Biologiya faniga oid matnlarni to‘g‘ri o‘qish, tushunish orqali terminlar, atamalarni o‘zlashtirish, jonli tabiatni tizim sifatida bilish, jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni his etish, jonli muhit muammolarini hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, ijtimoiylashuvi rivojlanadi. Bir vaqtning o‘zida atrofimizni o‘rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang- baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikka asoslangan mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

Geografiya faniga oid matnlarni tinglab tushunish, o‘qish orqali o‘quvchida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni to‘g`ri tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalar hosil bo‘ladi, mustaqil fikr-mulohaza yuritish, xaritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amalda qo‘llash malakalari shakllanadi.

Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid matnlarni tushunish, o‘qish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish malakalari rivojlanadi.

Tarix fani orqali adabiy va tarixiy dalillarni bir-biriga qiyoslash, dalillar haqida fikr yuritish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish bilimni puxta o‘zlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyot va tarix fani o‘zaro yaqin turadi. Adabiyot darslarida o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishda ularning tarix fanidan olgan bilimlari bilan birga, hozirgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalarni o‘rganishlaridan ham foydalaniladi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi yorqin tarixiy shaxslar obrazlari ham o‘quvchining ma’naviy dunyosini boyitadi, jamiyatning moddiy boyligi va ma’naviy madaniyatini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shish tuyg‘usini o‘stiradi. Shu yo‘l bilan o‘quvchida ijtimoiy hayot voqealari hamda adabiyot va san’at asarlarini mustaqil anglash malakasi, izchil dunyoqarash shakllantiriladi.

KASBIY TA’LIM O‘QUVCHILARIDA TIL VA ADABIYOT FANLARI BO‘YICHA RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR

(Kasbiy ta’lim o‘quvchilariga qo‘yiladigan talablar)

NUTQIY KOMPETENSIYALAR

	Og‘zaki nutq malakasi
OTBMT.ON.1	O‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so‘zlay olish.
OTBMT.ON.2	Mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish, mavzu doirasidagi fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida namoyish qilish.
OTBMT.ON.3	Munozaralarda ishtirok etish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildira olish.
OTBMT.ON.4	Badiiy matnni yoddan ifodali aytish, bunda ohang, ovoz tovlanishlari va to‘xtam (pauza) dan o‘rinli foydalana olish.
	Yozma nutq malakasi
OTBMT.YN.1	O‘z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to‘g‘ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma’lumotni belgilangan hajm talabiga ko‘ra yoza olish.

OTBMT.YN.2	Turli maqsad va har xil o‘quvchiga mo‘ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma’lum narsa/hodisa haqida yozma ma’lumot yetkaza olish.
OTBMT.YN.3	Materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish.
OTBMT.YN.4	Yozma nutqining ta’sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o‘rinli qo‘llay olish.
OTBMT.YN.5	Matnning izchilligini ta’minlash va saviyasini oshirish uchun so‘z va grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llay olish.
OTBMT.YN.6	Imlo, uslub va punktuatsion me’yorlarga rioya qilish.
	Anglash malakasi
	O‘qish va tushunish
OTBMT.A.O‘T.1	Matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o‘qiy olish.
OTBMT.A.O‘T.2	Matnda til qanday qo‘llanganini, xususan, har bir so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklining qanday ma’no tashiyotganini, nega aynan shu so‘z, birikma yoki gap qo‘llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish.
OTBMT.A.O‘T.3	Ibora (idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo‘shadigan hissasini aniqlay olish.
OTBMT.A.O‘T.4	Matn mazmuniga mos sarlavha (lar)ni topa olish.
OTBMT.A.O‘T.5	Matn obyektiga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish.
OTBMT.A.O‘T.6	Xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog‘lay olish.
OTBMT.A.O‘T.7	Matnning yozilishidan qanday maqsad ko‘zlanganini, qaysi toifadagi o‘quvchiga mo‘ljallanganini, qanday kontekstda yozilganini bilish va bu bilimni matnni yaxshiroq tushunish uchun qo‘llay olish.
	Tinglab tushunish
OTBMT.A.TT.1	Monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish.
OTBMT.A.TT.2	Jonli nutq va audiomatn mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish.
OTBMT.A.TT.3	Berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish.
OTBMT.A.TT.4	So‘roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushunish.
OTBMT.A.TT.5	Audiomatnda berilgan ma’lumotni turli shaklda, xususan, jadval, chizma, grafik ko‘rinishida ifodalay olish.

OTBMT.A.TT.6	Audiomatnni og‘zaki aytib bera olish va matn ko‘rinishida yozib bera olish.
OTBMT.A.TT.7	Tinglanganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish.
OTBMT.A.TT.8	Dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYALAR

Lingvistik malaka (*fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis*)	
	Fonetika
OTBMT.L.F.1	Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasini anglash va izohlay olish.
OTBMT.L.F.2	Fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovus orttirilishi, tovush almashishi) ni bilish va izohlay olish.
OTBMT.L.F.3	Ohang va urg‘uni bilish va qo‘llay olish.
	Imlo me’yorlari
OTBMT.L.IM.1	Harflar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
OTBMT.L.IM.2	Asos va qo‘shimchalar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
OTBMT.L.IM.3	So‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko‘chirish qoidalariga amal qilish.
	Leksikologiya
OTBMT.L.L.1	Sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish
OTBMT.L.L.2	Omonim, paronimlarni farqlash, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish
OTBMT.L.L.3	So‘zning ko‘p ma’noliligi, bosh va ko‘chma ma’nolarni farqlash, ko‘chma ma’noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
Morfologiya	
OTBMT.L.M.1	So‘zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo‘shimchani, tub va yasama so‘zlarni farqlash; qo‘shimchalarning shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noliligini bilish, nutqida qo‘llay olish
OTBMT.L.M.2	Mustaqil so‘z turkumlari (fe’l, ot, sifat, son, ravish, olmosh), ularning ma'no turlarini o‘zaro farqlash, uslubiy xususiyatlarini tushunish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.

OTBMT.L.M.3	Yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama)ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llash.
OTBMT.L.M.4	Alohida so‘z turkumlari (modal, taqlid va undov so‘zlar) ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llash.
OTBMT.L.M.5	Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.
	Sintaksis
OTBMT.L.S.1	So‘z birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqida to‘g‘ri qo‘llash.
OTBMT.L.S.2	Gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘liqligini, tartibini tushunish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
OTBMT.L.S.3	Sintaktik birliklarni farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
OTBMT.L.S.4	Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.

TIL VA ADABIYOT FANLARI ORQALI O‘QUVCHIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Kasbiy ta’lim tizimida o‘quvchida fanga oid kompetensiyalar bilan birga tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Til va adabiyot fanlari bloki yo‘nalishidagi fanlar orqali o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantirish lozim.

Fanlarni o‘qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchini fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjet) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lish, vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilish, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik

muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunishdan, ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

ONA TILI FANI BO‘YICHA KASBIY TA’LIM O‘QUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

OG‘ZAKI NUTQ MALAKASI	
1	O‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so‘zlay olish.
2	Mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish, mavzu doirasidagi fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida namoyish qilish.
3	Munozaralarda ishtirok etish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildira olish
4	Badiiy matnni yoddan ifodali aytish, bunda ohang, ovoz tovlanishlari va to‘xtam (pauza) dan o‘rinli foydalana olish.
YOZMA NUTQ MALAKASI	
1	O‘z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to‘g‘ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma’lumotni belgilangan hajm talabiga ko‘ra yoza olish.
2	Turli maqsad va har xil o‘quvchiga mo‘ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma’lum narsa hodisa haqida yozma ma’lumot yetkaza olish.
3	Materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish.
4	Yozma nutqining ta’sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o‘rinli qo‘llay olish.
5	Matnning izchilligini ta’minlash va saviyasini oshirish uchun so‘z va grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llay olish.
6	Imlo, uslub va punktuatsion me’yorlarga rioya qilish.
	ANGLASH MALAKASI
	O‘QISH VA TUSHUNISH
1	Matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o‘qiy olish.
2	Matnda til qanday qo‘llanganini, xususan, har bir so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklining qanday ma’no tashiyotganini, nega aynan shu so‘z, birikma yoki gap qo‘llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish.
3	Ibora (idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo‘shadigan hissasini aniqlay olish.
4	Matn mazmuniga mos sarlavha (lar)ni topa olish.
5	Matn obyektiga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish.

6	Xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog‘lay olish.
7	Matnning yozilishidan qanday maqsad ko‘zlanganini, qaysi toifadagi o‘quvchiga mo‘ljallanganini, qanday kontekstda yozilganini bilish va bu bilimni matnni yaxshiroq tushunish uchun qo‘llay olish.
	TINGLAB TUSHUNISH
1	Monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish
2	Jonli nutq va audio matn mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish.
3	Berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish.
4	So‘roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushunish.
5	Audio matnda berilgan ma’lumotni turli shaklda, xususan, jadval, chizma, grafik ko‘rinishida ifodalay olish.
6	Audio matnni og‘zaki aytib bera olish va matn ko‘rinishida yozib bera olish.
7	Tinglanganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish.
8	Dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish.
LINGVISTIK MALAKA (fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis)	
	FONETIKA
1	Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasini anglash va izohlay olish.
2	Fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi) ni bilish va izohlay olish.
3	Ohang va urg‘uni bilish va qo‘llay olish.
	IMLO ME’YORLARI
1	Harflar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
2	Asos va qo‘shimchalar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
3	So‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko‘chirish qoidalariga amal qilish.
	LEKSIKOLOGIYA
1	Sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish.
2	Omonim, paronimlarni farqlash, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
3	So‘zning ko‘p ma’noliligi, bosh va ko‘chma ma’nolarni farqlash, ko‘chma ma’noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
	MORFOLOGIYA
1	So‘zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo‘shimchani, tub va yasama so‘zlarni farqlash; qo‘shimchalarning shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noliligini bilish, nutqida qo‘llay olish.

2	Mustaqil so‘z turkumlari (fe’l, ot, sifat, son, ravish, olmosh), ularning ma'no turlarini o‘zaro farqlash, uslubiy xususiyatlarini tushunish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
3	Yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama)ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llash.
4	Alohida so‘z turkumlari (modal, taqlid va undov so‘zlar) ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llash.
5	Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.
SINTAKSIS	
1	So‘z birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqida to‘g‘ri qo‘llash.
2	Gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘liqligini, tartibini tushunish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
3	Sintaktik birliklarni farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
4	Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.

KASBIY TA’LIM O‘QUVCHISIGA

ONA TILI FANIDAN QO‘YILADIGAN TALABLAR

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og‘zaki nutq, yozma nutq, anglash (o‘qish va tushunish, tinglab tushunish)

OG‘ZAKI NUTQ	
1	O‘zbek tilining adabiy me’yorlariga rioya qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta’sirchan va ravon so‘zlay olish.
2	Nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda og‘zaki muloqotga kirisha olish.
3	Har qanday mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida ifodalay olish.
4	Murakkab grafik chizma hamda diagrammalarni og‘zaki ifodalab bera olish.
5	She’rlarni yoddan ifodali o‘qish, dramatik asarlardan parchalar ijro eta olish, bunda til vositalarining mazmunini anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to‘xtam(pauza)dan o‘rinli foydalana olish.
6	Munozaralarda ishtirok etish, aytilganlarni umumlashtirish va xulosalay olish.

YOZMA NUTQ	
1	Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikr va hissiyotlarini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 20–25ta gapdan iborat matn yoza olish.
2	Turli maqsad va turli auditoriyaga mo‘ljallangan turli uslubdagi matnlarni yoza olish, xususan, biror narsani tushuntirish yoki ma’lum narsa yoki hodisa haqida ma’lumot yetkazish uchun yoza olish.
3	Materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse va insho yoza olish.
4	Yozma nutqining ta’sirchanligini oshirish maqsadida badiiy tasvir vositlarini qo‘llay olish.
5	Matnning izchilligini ta’minlash uchun so‘zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to‘g‘ri qo‘llay olish.
6	Husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 160– 170ta so‘zdan iborat diktant yoza olish.
7	Yozma nutqda grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish.
8	Ish qog‘ozlari (e’lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma, tilxat, dalolatnoma, ishonchnoma, yo‘riqnoma, shartnoma, buyruq, buyruqdan ko‘chirma)ni to‘g‘ri yoza olish.
ANGLASH	
O‘QISH VA TUSHUNISH	
1	Matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o‘qish.
2	Badiiy matn turlari(hikoya, she’r, drabl, drama)ning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini farqlash, matn tuzilishiga xizmat qiluvchi grammatik vositalarning vazifasini tushunish
3	O‘zbek tiliga xos bo‘lgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qo‘shadigan hissasini aniqlay olish; muallifning so‘z qo‘llash mahoratiga unosabat bildira olish
4	Axborot matnlari(ilmiy va ommabop maqola, yo‘riqnoma, grafik tasvir va jadvallar, tahliliy va tanqidiy matnlar, qiyoslash matnlari)ning muhim va nomuhim jihatlarni ajratish, xatboshilarni aniqlay olish.
5	O‘qish strategiyalari (eski bilimlarni qo‘llash, bashorat qilish, asosiy g‘oyani aniqlab olish, so‘roqlash, xulosalar chiqarish, tasavvur qilish, hamkorlikda o‘qish)dan amalda foydalana olish.
6	Xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog‘lay olish.
TINGLAB TUSHUNISH	
1	Badiiy matnlarning yozma va audio shakllarini taqqoslagan holda ma’nodagi o‘zgarishlar haqida fikr yurita olish.

2	Audiomaterialni og‘zaki aytib bera olish va matn ko‘rinishida yozib bera olish.
3	Audio yoki videomaterialda berilgan ma’lumotni yozma, grafik va rasm ko‘rinishida ifodalay olish.
4	Gap ohangidagi uslubiy bo‘yoqdor vositalarni ajratish va tahlil qila olish.
5	Eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish.
6	Tinglash jarayonida mazmunni tushunishdagi to‘siqlarni anglash va bartaraf eta olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

TILNING IFODA IMKONIYATLARI	
1	Fonetik vositalarning badiiy-estetik vazifasini farqlash va nutqda ulardan to‘g‘ri foydalana olish.
2	So‘zning ma’no va shakl munosabatlarini farqlash, nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
3	So‘zning ma’no nozikliklarini farqlash, nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.
4	Ona tilining boyish manbalarini, tarixiy, eskirgan, arxaik va yangi so‘zlarni farqlash, nutqda ulardan to‘g‘ri foydalana olish.
5	Nutqda qo‘llangan barqaror birikmalarning estetik vazifasini aniqlay olish.
6	Ma’no ko‘chish yo‘llarini farqlash, matndagi o‘rnini tahlil qila olish.
7	Morfologik vositalarning badiiy-estetik vazifasini farqlash va nutqda to‘g‘ri foydalana olish.

TUSHUNTIRISH XATI

DTSda Kasbiy ta’lim tashkilotlarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: “o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida “o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchida grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat” ekanligi belgilangan.

Mazkur o‘quv dasturi kognitiv, ya’ni tilga oid malaka va ko‘nikmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ona tili faniga shunchaki o‘quv predmeti sifatida qaralmaydi. Bunda ona tili butun borliqni: tabiat, jamiyat, fanlarni, o‘zlikni anglash va o‘rganish vositasiga aylantiriladi. O‘quvchi ona tili fanini o‘zlashtirish jarayonida tildan turli ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishni o‘rganadi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod, jamiyatshunoslik kabi fanlarni o‘zlashtirishda til omilini his qiladi. Muayyan soha mutaxassisiga aylanganida, maktabda olgan bilim, ko‘nikma va malakalaridan foydalanib o‘zbek tilida ish yuritish, nutq so‘zlash, turli uslublarda yoza olish, qarashlarini erkin ifodalagan holda fikrini boshqalarga turli shakllarda samarali tarzda yetkazishni, eng muhimi, teran fikrlashni biladi.

O‘quvchilar uchun ona tili fani dasturi boshlang‘ich sinfda egallanadigan nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning uzviy davomi bo‘lib, soddadan murakkabga tamoyili asosida ishlab chiqilgan.

Ona tilidan ta’lim mazmuni tilning barcha xususiyat va qonuniyatlari parallel ravishda soddadan murakkabga tomon, amalda qo‘llash ehtiyojidan kelib chiqqan holda o‘rgatishga asoslangan, ya’ni malaka talablarida ko‘rsatilgan ko‘nikma va malakalarni egallash uchun nutqiy mavzu doirasida qaysi grammatik va til sathlari bo‘yicha bilim zarur bo‘lsa, shundan o‘quvchining yosh xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalanilgan. Ketma-ketlik hisobga olinmagan. Bir mavzuga qayta-qayta murojaat qilinishi va uning doimiy murakkablashib borishiga e’tibor qaratilgan.

O‘quv dastirida o‘quvchi ehtiyoj sezadigan har qanday fan doirasida mavzular shakllantirilib, ularda til birliklaridan qanday foydalanish, nimalarga e’tibor berish kerakligi, ularning mashq va topshiriqlar orqali mustahkamlanishi fanlararo integratsiyani ta’minlashga xizmat qilgan.

O‘quv materiallarini tanlashda turli uslubdagi qiziqarli ma’lumotlarni o‘zida jamlagan yaxlit matnlar yoki yaxlit mazmun ifodalagan badiiy matn parchalarini o‘qish, eshitish va tahlil qilish, bir xil mavzuda ikki xil uslubda yozilgan matnlarni o‘zaro qiyoslash kabi jihatlar e’tiborga olingan.

Ona tilidan darsliklar yaratishda ona tilining boshqa fanlar bilan aloqasini ta’minlashga, ona tilining barcha ta’lim tashkilotlarida o‘qitiladigan fanlar, o‘quv predmetlarining o‘rganish va o‘rgatish vositasi ekanligini chuqur anglagan holda undan ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanishga, ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettirishga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlariga, to‘rtta lisoniy malakaning baravar shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim.

O‘quvchini xalqaro baholash – o‘qish savodxonligini baholovchi PIRLS hamda PISA dasturlariga tayyorlash maqsadida o‘qib tushunish malakalarini

shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar darslik mazmuniga singdiriladi.

O‘quv dasturi ta’lim tashkilotining tegishli kafedrasida o‘rganilib, o‘quvchining o‘quv imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda belgilangan soatlar doirasida 15 foizgacha o‘zgartirilishi mumkin. Mazkur o‘zgarishlar tegishli tartibda pedagogik kengashda tasdiqlanishi lozim.

ONA TILI
(30 soat)

1-Mavzu. Muhabbat o‘zi nima?
(2 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- muhabbat tushunchasi, muhabbatning inson hayotida tutgan o‘rni, insonning kasbiga, fanga, mashg‘ulotiga, hayvonlarga, buyumlarga va boshqalarga muhabbati, muhabbatni ifodalash usullari, kechagi va bugungi muhabbat izhor qilishdagi farqlar, ishq, sevgi, muhabbat, yoqtirish, yaxshi ko‘rish, ixlos qilish tushunchalari o‘rtasidagi farqlar, “muhabbat va sadoqat”, “muhabbat va boylik”, “muhabbat va axloq” tushunchalari munosabati haqidagi informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- matn turlari, yozma va audio matn, badiiy va informativ matn, ijodiy matn (esse) qanday yaratilishi, og‘zaki nutq va uni tushunishning o‘ziga xosliklari, tushunishga tayyorlanish (eski bilimlarni qo‘llash, tasavvur qilish, bashorat qilish) qoidalari bilan tanishadilar; nutq uslublari, so‘zlarning bog‘lanishi, ibora, sinonim va antonimlar uslubiyati yuzasidan bilimlarini kengaytiradilar.

2-Mavzu. Jamiyatning bir bo‘lagiman
(2 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- jamiyatdan ayro inson, milliy va turli xalqlarga xos urf-odatlar, ism qo‘yish bilan bog‘liq odatlar, insonning jamiyatdagi o‘rni haqidagi informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalashga tayyorlanish, fikrni tartiblash (kirish, asosiy qism, xulosa), matn sarlavhasi, yozish uchun tanlangan mavzu yuzasidan

material to‘plash, nafas va hayajonni boshqarish qoidalari bilan tanishadilar; paronim, eskirgan so‘zlar va inkor shakllar uslubiyati, bosh harflar imlosi, olmoshning uslubiy imkoniyatlariga doir bilimlarini kengaytiradilar.

3-Mavzu. Huquqdan burchgacha
(4 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- shaxsning huquqlari, mualliflik huquqi, gender tengligi, shaxs mas’uliyati haqidagi informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- fikrni og‘zaki ifodalashda ravonlikni saqlash, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarni tushunish, epigraf, tezisga doir qoidalar bilan tanishadilar; atamalar, unli va undoshlar imlosiga doir bilimlarini kengaytiradilar.

4-Mavzu. Men va boshqalar
(2 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- shaxsning “men”i, olomon madaniyati, shaxsning o‘zgalar bilan munosabati haqidagi informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalashda sheva, jargon, varvarizm va vulgarizm elementlaridan tiyilish, matnda vizual ifodalangan ma’lumotlarni o‘qish va xatboshiga doir qoidalar bilan tanishadilar; egalik shakllari, birlik va ko‘plik, kirish va kiritmalar uslubiyatiga doir bilimlarini kengaytiradilar.

5-Mavzu. Ruhiy tarbiya
(2 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- e’tiqod, vijdon erkinligi, halollik, keng ildiz otgan illatlar (yolg‘onchilik, tuhmat qilish, g‘iybatchilik) haqidagi informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalashda ma’nosiz birliklardan (demak, masalan, o‘sha va b.) foydalanmaslik, matnda ko‘chma ma’noda qo‘llangan birliklarni anglash, fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalashda argumentlardan foydalanishga doir qoidalar bilan tanishadilar; jargonlar, qo‘shma gap va gap bo‘laklari tartibi uslubiyatiga doir bilimlarini kengaytiradilar.

6-Mavzu.Tilim – boyligim
(4 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- “So‘z latofati” va “So‘z xususida so‘z” asarlaridan parchalar, “qog‘ozga o‘ralgan” so‘zlar, til “ekologiyasi” haqidagi informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- matnda yashirin ifodalangan ma’lumotlarni fahmlash, fikrni asoslash, fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalashda ibora, maqol, hikmatli so‘zlardan foydalanishga doir qoidalar bilan tanishadilar; so‘z yasovchi qo‘shimchalar uslubiyati, shevaga xos so‘zlar, asos va qo‘shimchalar imlosiga doir bilimlarini kengaytiradilar.

7-Mavzu. Fan va texnologiyalar
(4 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- Nobel mukofoti, Nobel mukofoti laureatlari nutqi, Silikon vodiysi, kelajak kasblari, tabiat va ixtirolar, Innovatsion rivojlanish vazirligi haqidagi matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- matn mazmuni asosida savollar tuza olish, yozma nutqda mavzuga mos maqol, matal, idioma, sitatalardan foydalanish, fikrni og‘zaki adabiy tilda ifodalashda noverbal vositalardan foydalanish, matnni mazmuniy bloklarga ajratish, yozma nutqda takrorlardan tiyilish, og‘zaki nutqda ovozni balandlatish va pastlatishdan o‘rinli foydalanishga doir qoidalar bilan tanishadilar;

- zamon, fe’l nisbati, shaxs-son qo‘shimchalari hamda yordamchi so‘zlar uslubiyati, qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish imlosiga doir bilimlarini kengaytiradilar.

8-Mavzu. Boy bo‘lsam.
(4 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- boylik tushunchasi, boylarga munosabatda kecha va bugungi farqlar, pul, qashshoqlik sabablari, milliarderlar hayotidan hikoya qiluvchi informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- matndagi asosiy va yordamchi ma’lumotlarni aniqlash, yozma matnning kirish qismini shakllantirish, mustaqil nutq va uni ifodalash qoidalari bilan tanishadilar; ko‘chim turlari, kelishik shakllari uslubiyati, vulgarizm va varvarizmlar, subyektiv munosabat ifodalovchi shakllar uslubiyati, nuqta, so‘roq, undovning qo‘llanishiga doir bilimlarini kengaytiradilar.

9-Mavzu. Kino sanoati
(4 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- kino sanoati, kassabop filmlar, adabiyot va kino, seriallar, o‘zbek kinematografiyasiga doir informativ matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- bahs va bahslashish odobi, matndan xulosalar chiqarish, yozma matnning xulosa qismini shakllantirish, suhbatlashish odobi, matn muallifining nuqtayi nazariga baho berishga doir qoidalar bilan tanishadilar; vergul, tire, qo‘shtirnoq, ikki nuqta, nuqtali vergulning qo‘llanishiga doir bilimlarini kengaytiradilar.

10-Mavzu. Tabiat va inson
(2 soat)

Ushbu bobda o‘quvchilar:

- olam va ekologiya, insonning tabiatga ta’siri, Qizil kitob, ekologik muammolar haqidagi matnlar bilan tanishadilar va tahlil qiladilar;

- o‘qilgan va tinglangan matnlar asosida ochiq va yashirin ma’lumotlarni tushunish, munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashqlarni bajaradilar;

- yozma matnni qisqartirish, yozma matnni kengaytirish, turli nutqiy vaziyatlarda muloqot qilishning o‘ziga xosliklari, o‘qish davomida tushunishga ta’sir etuvchi omillarga doir ma’lumotlar bilan tanishadilar; qavs, ko‘pnuqtaning

qo‘llanishi, asos va qo‘shimchalar imlosi, ko‘chirma va o‘zlashtirma gap uslubiyatiga doir bilimlarini kengaytiradilar

ONA TILI
(30 soat)

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari: Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

B1

mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlash.

B1+

mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

B1

doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

B1+

doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

B1

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

B1+

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

B1

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish.

B1+

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

B1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

B1+

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar fan orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

1-Mavzu. O‘zbek tili va uning taraqqiyoti (4 soat)

O‘zbek tilining bugungi taraqqiyoti. Tilning ilm-fan, texnika va boshqa sohalardagi o‘rni.

2-Mavzu. Nutq madaniyati (4 soat)

Nutq odobi. Ulug‘ allomalarimizning nutq odobi haqidagi fikrlari. Nutqiy muloqot va nutq madaniyati. Nutqiy madaniyat – jamiyat madaniyatining ko‘zgusi 4-mavzu. Madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy Madaniy nutq haqida tushuncha. Uni yuzaga keltiradigan asosiy sifatlar: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo‘yalilik va boshqalar.

3-Mavzu. Madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlar
(2 soat)

Madaniy nutq haqida tushuncha. Uni yuzaga keltiradigan asosiy sifatlar: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo‘yalilik va boshqalar.

4-Mavzu. Nutqning to‘g‘riligi
(2 soat)

Nutqning to‘g‘riligi – uning adabiy til meyorlariga to‘liq muvofiqligi. Adabiy meyorlarning shakllanishida nutqiy amaliyotning o‘rni. Leksik meyorlar. To‘g‘ri talaffuz meyorlari. So‘z yasalish meyorlari. Grammatik meyorlar. Uslubiy meyorlar. Yozma nutqning to‘g‘riligida imlo va tinish belgilari meyorlari. Nutqning to‘g‘riligiga putur yetkazuvchi holatlar.

5-Mavzu. Nutqning aniqligi
(2 soat)

Nutq aniqligining til birliklari ifodalagan mazmunning voqelikdagi tushunchalarga to‘liq mos kelishi asosida ta’minlanishi. Nutqning aniqligi va ko‘p ma’noli, ma’nodosh, shakldosh va paronim so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish. Nutqning aniqligi va badiiy nutq. Ifoda aniqligi va tasvir tiniqligi. Nutqning aniqligiga putur yetkazuvchi holatlar.

6-Mavzu. Nutqning mantiqiyligi
(2 soat)

Nutqda til birliklari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlarning fikr mantiqiy mohiyatiga mosligi – mantiqiylik sifatining asosi. Fikr tarkibi va mantiqiylik. Nutqning mantiqiyligiga erishishda sintaktik vositalardan o‘rinli va unumli foydalanish. Mantiqiy nutq tuzishning bog‘liq nutq, ijodiy matn yaratishdagi o‘rni. Nutqning mantiqiyligiga putur yetkazuvchi holatlar. Nutq mantiqiyligi va matnning kompozitsion tuzilishi.

7-Mavzu. Nutqning sofligi
(2 soat)

Nutqning sofligi uning adabiy til meyorlariga mosligi bilan bir qatorda ma’naviy-axloqiy odatlarga yot bo‘lgan unsurlardan xoliligi asosida belgilanishi. Nutq va jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy meyorlar. Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi holatlar. Varvarizmlar va vulgarizmlarning qo‘llanilish meyorlari. Rasmiy ish qog‘ozlari uslubiga xos qoliplashgan so‘z, birikma va gaplarning nutq sofligiga salbiy ta’siri.

8-Mavzu. Nutqning boyligi
(2 soat)

Nutqning boyligini yoki kambag‘alligi. Nutq boyligi undagi tarkibning rang-barangligi bilan belgilanishi. O‘zbek tili lug‘at tarkibi nutq boyligini ta’minlashning asosi. Nutqning boyligini ta’minlashda ma’nodosh so‘zlar, sodda va qo‘shma gaplarning o‘rni. Nutqning boyligiga putur yetkazuvchi holatlar. Leksik va grammatik takrorlarning nutq sifatiga salbiy ta’siri. Nutqning boyligi va nutq uslublari

9-Mavzu. Nutqning jo‘yaliligi
(2 soat)

Til vositalaridan muloqot sharoiti va maqsadiga mos tarzda foydalanish – nutq jo‘yaliligining bosh omili. Nutq uslublari va jo‘yali nutqning yuzaga kelishi. Jo‘yalilik sifatining og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘lishi. Nutqning jo‘yaliligi va so‘z tanlash malakasi. Nutqning jo‘yaliligiga putur yetkazuvchi holatlar.

10-Mavzu. Nutqning ifodaliligi
(4 soat)

Nutqning ta’sirchanligi va ifodaliligi. Ifodalilik va nutqiy uslublar. Nutqning ifodaliligini ta’minlovchi vositalar. Badiiy nutq va ko‘chimlarning ifodalilikni yuzaga chiqarishdagi o‘rni. Epitet. Metafora. O‘xshatishlar. Metonimiya. Mubolag‘a va kichraytirish. Kinoya. Nutqning ifodaliligiga putur yetkazuvchi holatlar.

11-Mavzu. Nutq madaniyati va nutq texnikasi. Ish qog‘ozlari ustida ishlash
(4 soat)

Nutq texnikasi umumiy nutqiy madaniyatning muhim belgisi. Ovozning sifati, nutq jarayonida to‘g‘ri nafas olish. Urg‘u. Talaffuz texnikasi, diksiya va boshqa fonetik ko‘nikmalar. Annotatsiya. Taqriz

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari: Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish): B1

Tinglab tushunish: sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlaydi.

Gapirish: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda etadi, leksik, grammatik va stilistik meyorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘yadi.

O‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiydi, gapning ifoda

maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiydi.

Yozish: fikr ifodasi mantiqan izchil, tinish belgilari, nutqda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalari, fikr ifodasida qo‘shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi.

Ijodiy matnlar yaratadi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi.

30 — 35 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi.

B1+

Ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi.

35 — 40 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi.

Nazorat ishlari (4 soat) .

Lingvistik kompetensiya:

B1

O‘zbek tilining bugungi taraqqiyotini izohlaydi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyati. Madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlar. Nutqning to‘g‘riligi Nutqning aniqligi Nutqning mantiqiyligi Nutqning sofligi. Nutqning boyligi. Nutqning jo‘yaliligi . Nutqning ifodaliligini farqlaydi va yozma nutq ifodasida o‘rinli foydalanadi. Ish qog‘ozlarini yozadi.

Lingvistik kompetensiya:

B1+

O‘zbek tilining bugungi taraqqiyotini izohlaydi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyati. Madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlar. Nutqning to‘g‘riligi Nutqning aniqligi Nutqning mantiqiyligi Nutqning sofligi. Nutqning boyligi. Nutqning jo‘yaliligi . Nutqning ifodaliligini farqlaydi va yozma nutq ifodasida o‘rinli foydalanadi. Ish qog‘ozlarini yozadi.

O‘quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiya elementlari: Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi:

B1

mavjud axborot manbalari(kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), kompyuter, elektron pochta va boshq.)dan o‘quv maqsadlari doirasida foydalana oladi va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirib, xulosa chiqaradi, ibrat oladi va o‘z faoliyatida qo‘llay oladi.

B1+

media vositalardan tilga oid zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa oladi, saralaydi, qayta ishlaydi, uzatadi, saqlaydi, xavfsizligini ta’minlaydi va foydalanishda media-madaniyatga rioya qila oladi.

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi:

B1

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylantira oladi;

B1+

o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha oladi, o‘zini nazorat qila biladi, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera biladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi:

B1

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etadi; tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etadi, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘la oladi;

B1+

badiiy asarlarda aks etgan ma’naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglaydi, his etadi va boshqalarga yetkazishga intiladi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

B1

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish.

B1+

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi:

B1

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita oladi;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy oladi va foydalana oladi.

B1+

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘la oladi hamda ulardan foydalana oladi.

ADABIYOT FANI BO‘YICHA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Kasbiy ta’lim o‘quvchilarda adabiyot faniga oid quyidagi **kompetensiyalar** shakllangan bo‘lishi lozim:

ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALAR

AK1: asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyasini (g‘oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi

AK2: asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi;

AK3: asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi;

AK4: muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil topadi hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi;

AK5: asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi;

AK6: asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi;

AK7: o‘qilgan asarlar tahlili (shu jumladan, qiyosiy tahlili) asosida ijodiy va tahliliy matnlar yaratadi, bunda turli lingvistik va ekspressiv vositalardan o‘rinli foydalanadi hamda mantiqiy izchillikka rioya qiladi.

FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRILISHI

AK 1 – Asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyasini (g‘oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi.	
AK1-6	- Asarning asosiy g‘oyasini aniqlaydi; - asarning asosiy g‘oyasi asar davomida qanday rivojlantirilganini (ochib berilganini) tahlil qiladi; - asarning ikkilamchi g‘oyalarini aniqlaydi; - ikkilamchi g‘oyalar asarning asosiy g‘oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi;

	- asar yaratilgan kontekstning (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy kontekst) asar g‘oyasiga ta’sirini ko‘rsatib bera oladi.
AK1-6	- asarning asosiy g‘oyasini aniqlaydi; - asarning asosiy g‘oyasi asar davomida qanday rivojlantirilganini (ochib berilganini) tahlil qiladi; - asarning ikkilamchi g‘oyalarini aniqlaydi; - ikkilamchi g‘oyalar asarning asosiy g‘oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi; - asar yaratilgan kontekstning (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy kontekst) asar g oyasiga ta sirini ko rsatib beradi.
AK2 – Asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi.	
AK2-3	- asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; - asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi.
AK2-3	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi.
AK3 – Asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi.	
AK3-5	- asar syujetini qayta hikoya qiladi; - syujetdagi voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri qo‘yadi; - voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo‘l tutganiga izoh beradi; - syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi; - syujet nega aynan shunday qurilganligini tahlil qiladi.
AK3-5	- asar syujetini qayta hikoya qiladi; - syujetdagi voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri qo‘yadi; - voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo‘l tutganiga izoh beradi; syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi; - syujet nega aynan shunday qurilganligini tahlil qiladi.
AK4 – Muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi.	

AK4-6	- muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini muallif qo‘llagan tasviriy vositalarni (o‘xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz) topadi; - ushbu tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi; - muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o‘quvchiga ta’sirini tahlil qiladi.
AK4-6	- muallif qo‘llagan tasviriy vositalarni (o‘xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz) topadi; - ushbu tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi; - muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o‘quvchiga ta’sirini tahlil qiladi.
AK5 – Asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi.	
AK5-6	- asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.
AK5-7	- asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.
AK6 – Asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi.	
AK6-6	- asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; - asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g‘oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; - asar va uning turli talqinlarini (masalan, multimediatalqinlari – audiokitob, radiospektakl, san’atning boshqaturlaridagi talqinlari – kino, teatr, tasviriy san’at, monumental san’at) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topadi; - asar va uning turli talqinlaridagi farqlar asar g‘oyasini qaydarajada o‘zgartirganini yoki kuchaytirganini tahlil qiladi.
AK6-6	- asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; - asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g‘oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi;

	- asar va uning turli talqinlarini (masalan, multimedia talqinlari-audiokitob, radiospektakl, san’atning boshqa turlaridagi talqinlari – kino, teatr, tasviriy san’at monumental san’at) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topadi; - asar va uning turli talqinlaridagi farqlar asar g‘oyasini qay darajada o‘zgartirganini yoki kuchaytirganini tahlil qiladi.

ADABIYOT FANI BO‘YICHA QO‘YILADIGAN TALABLAR

AK 1 – Asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyasini (g ‘oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi	
AK1-6	- asarning asosiy g‘oyasini aniqlaydi; - asarning asosiy g‘oyasi asar davomida qanday rivojlantirilganini (ochib berilganini) tahlil qiladi; - asarning ikkilamchi g‘oyalarini aniqlaydi; ikkilamchi g‘oyalar asarning asosiy g‘oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi; - asar yaratilgan kontekstning (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy kontekst) asar g‘oyasiga ta’sirini ko‘rsatib bera oladi.
AK2–Asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi	
AK2-3	- asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi.
AK3 – Asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi	
AK3-5	- asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri qo‘yadi; - voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo‘l tutganiga izoh beradi; - syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi; - syujet nega aynan shunday qurilganligini tahlil qiladi.

AK4 – Muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi	
AK4-6	- muallif qo‘llagan tasviriy vositalarni (o‘xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz) topadi; - ushbu tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o‘quvchiga ta’sirini tahlil qiladi.
AK5 – Asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi	
AK5-6	- asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; - ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.
AK6 – Asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi	
AK6-6	- asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g‘oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; - asar va uning turli talqinlarini (masalan, multimedia talqinlari – audiokitob, radiospektakl, san’atning boshqa turlaridagi talqinlari– kino, teatr, tasviriy san’at, monumental san’at) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topadi; - asar va uning turli talqinlaridagi farqlar asar g‘oyasini qay darajada o‘zgartirganini yoki kuchaytirganini tahlil qiladi.

Adabiyot
(50 soat)

Kirish.

XALQ OG‘ZAKI IJODI VA QADIMGI ADABIYOT NAMUNALARI
(12 soat)

Xalq og‘zaki ijodi haqidagi bilimlarni umumlashtirish.

“Go‘ro‘g‘li” dostonidan parchalar *yoki* “Alpomish” dostonidan parchalar.

Qadimgi adabiyotning rivojlanish tamoyillari. Qadimgi Sharq adabiyoti.

Antik davr (Qadimgi Yunoniston va Rim) adabiyoti.

Homer *yoki* Sofokl ijodidan namunalar.

O‘RTA ASRLAR ADABIYOTI
(10 soat)

Mumtoz o‘zbek adabiyoti va uning rivojlanish bosqichlari.

Yusuf Xos Hojib: “Qutadg‘u bilig”dan parchalar.

Alisher Navoiy: “Xamsa”chilik haqida tushuncha. “Xamsa” tarkibidagi dostonlardan biri (parchalar).

O‘rta asrlar jahon adabiyoti chizgilari.

Migel de Servantes. “Don Kixot” romanidan parchalar.

XVII–XIX ASRLAR ADABIYOTI MANZARALARI
(16 soat)

Boborahim Mashrab: G‘azallardan namunalar.

Muhammad Rizo Ogahiy: G‘azallardan namunalar.

O‘zbek mumtoz adabiyotida ayollar. O‘zbek shoiralari ijodidan namunalar (Nodira, Anbar Otin *yoki* Dilshodi Barno ijodidan)

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti. Furqat *yoki* Muqimiy *yoki* Zavqiy ijodidan.

XVII–XIX asrlarda jahon adabiyoti.

Aleksandr Pushkin: “Yevgeniy Onegin” she’riy romani

XX ASR ADABIYOTI MANZARALARI: XX ASRNING BOSHI
(12 soat)

XX asr o‘zbek adabiyoti rivojlanish tendensiyalari.

Fitrat: “Abulfayzxon” dramasi.

XX asr jahon adabiyoti rivojlanish tendensiyalari.

Erix Maria Remark: “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani.

ADABIYOT FANIDAN O‘QUV DASTURI
(50 soat)

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

- qadimgi tukiy, mumtoz, mustaqillik adabiyotini farqlaydi;
- asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg‘ular xususida fikr yurita oladi;
- asarining til xususiyatlarini tahlil qiladi, munosabat bildiradi;
- turli janr va hajmdagi 6-8 ta she’riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;
- adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yo‘nalishda insho (3, 4-bet) yoza oladi;
- adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so‘z, badiiy asarlardan o‘rinli foydalana oladi;
- turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi;
- o‘qilgan asar bo‘yicha obrazlarga tavsif beradi, mustaqil insho, taqriz yozadi.

Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltirish vositasi

Badiiy adabiyot inson ma’naviyatini yuksaltirish vositachi ekanligi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning ahamiyati. Shaxsning shakllanishida kitob mutolaasining o‘rni.

XALQ OG‘ZAKI IJODI
(4 soat)

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni sujetining o‘ziga xosligi. Dostondagi asosiy qahramonlar tavsifi. Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati.

QADIMGI TURKIY ADABIYOT
(8 soat)

Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘ot at-turk”asari

Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

“Devonu lug‘otit -turk” – izohli lug‘at va qomusiy asar sifatida. Unda badiiy durdonalarning o‘ziga xos tarzda ifoda etilgani.

Mehnat va marosim qo‘shiqlari. “Alp Er To‘nga” marsiyasi. “Devon”dagi maqollar xalq donoligining ifodasi sifatida.

Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” asari

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Yusuf Xos Hojibning didaktik dostonchilikning asoschisi ekanligi. Doston matni ustida ishlash. Undagi to‘rt timsol tavsifi. Asarning badiiy va tarbyaviy ahamiyati.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI
(14 soat)

Nosiriddin Rabg‘uziy. “Qisasi Rabg‘uziy”asari

“Qisasi Rabg‘uziy”da avtobiografik ma’lumotlar. “Qisasi Rabg‘uziy” – o‘zbek nasrining ilk yirik yodgorligi. Asarda nasr va nazm uyg‘unligi. Uning payg‘ambarlar haqidagi qissalardan iborat ekanligi. Asarga xalq og‘zaki ijodining ta’siri. Asarning mavzu qamrovi.

Hikoyatlar matni ustida ishlash. “Uzum hikoyasi”, “Sulaymonning qarinchg‘a bila so‘rashgani”, “Ilon va Qarlug‘och” hikoyatlari tahlili.

Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy” dostoni Alisher Navoiyning hayoti va ijodi.

“Saddi Iskandariy”dan olingan matn ustida ishlash. Dostonda yoshlik va qarilik haqidagi qarashlarining badiiy tahlili. Dostonning poetik xususiyatlari. Dostonining ma’rifiy va adabiy ahamiyati.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Bobur haqida zamondoshlari va undan keyingi buyuk shaxslar e’tirofi.

Bobur devonlari, ulardagi adabiy janrlar. “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim”, “Yaxshilig‘”, “Sochining savdosi tushti...”, “Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sorg‘ordim”, “Lola” g‘azallari matni ustida ishlash.

Bobur she’riyatida badiiy san’atlar.

Tajnis, talmeh va tanosib she’riy san’atlari haqida nazariy ma’lumot. Mashrab hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi.

Mashrab hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi. Mashrab she’riyatidagi tasavvufiy ohanglar.

“Ishqing o‘tig‘a kuygoni keldim”, “Bu tani xokingni- yu ruhi ravonni na qilay”, “O‘rtar” g‘azallari va “Dastingdan” musaddasi o‘zbek tasavvufiy she’riyatining yorqin namunasi sifatida.

Mashrab ijodining keyingi ijodkorlarga ta’siri.

Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon” (“Qarolar falsafasi”) Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Asar matni ustida ishlash. Asarning mazmuni va mohiyati. Unda ijtimoiy muammolarning ifodasi. Asarda o‘zbek ayolining ijtimoiy mavqei haqidagi badiiy estetik kuzatishlar. Anbar Otinning poetik mahorati.

YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI
(10 soat)

Abdurauf Fitrat. “Abulfayzxon” dramasi

Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdurauf Fitrat – ma’rifatparvar. Uning milliy teatr san’ati rivoji yo‘lidagi sa’y-harakatlari. “Abulfayzxon”– ilk o‘zbek realistik dramasi. Dramadagi asosiy qahramonlar talqini. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma’rifiy ahamiyati.

Cho‘lpon. “Kecha va kunduz” romani

Shoir hayoti va ijodi. Cho‘lpon – yetuk nosir. Uning “Kecha va kunduz” romanida Zebi ishtirokidagi voqealar tasviri va rivoji. Asardagi Mingboshi, Razzoq so‘fi, Qurvonbibi va boshqa qahramonlar talqini. “Kecha va kunduz” romanining kecha, bugun va erta haqida, inson umrining mazmuni to‘g‘risida fikrlashga undashi. Cho‘lpon ijodining XX asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

Badiiy asar tahlili (amaliy).

Erkin Vohidov. “Ruhlar isyoni” dostoni.

Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Uning she’riyatiga xos kechinmalar nozikligi va ifoda go‘zalligi, mumtoz she’riyatga xos ilg‘or an’analarning she’riyat an’analari bilan uyg‘unligi.

Erkin Vohidov – dostonnavis “Ruhlar isyoni” dostonida ijodkor va millat ozodligi muammosining badiiy-falsafiy talqini. Asarning shoir ijodiy qiyofasini belgilashdagi o‘rni.

Rauf Parfi she’riyati

Rauf Parfining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’riyatining o‘ziga xos jihatlari, ularda inson ruhiy kechinmalarining kuylanishi.

Shoirning “Tong otmoqda”, “Yomg‘ir yog‘ar”, “Yoz kechasi”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” she’rlari talqini. She’rlardagi lirik qahramon his-tuyg‘ularining ta’sirchan ifodasi. Tabiat go‘zalliklarini tasvirlashda shoirning o‘ziga xos mahorati.

MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTI
(8 soat)

XX asr o‘zbek adabiyotining xalqimizga xos qadimiy adabiy meros, boy madaniyat va badiiy tafakkur tarixida sifat jihatidan o‘ziga xos alohida bosqichni tashkil etishi. XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘li – barkamol realistik tasvirning tadrijiy yo‘lidan iborat ekanligi. Bu davrda adabiyotning hayot bilan aloqasi yanada chuqurlashganligi, zamonaviy mavzular va muammolarning adabiyotda keng aks etishi.

Mustaqillik davri she’riyati.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining estetik saboqlari, erishilgan yutuqlar va kamchiliklar. O‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonining tarkibiy bir

qismiga aylanganligi va o‘zga xalqlar badiiy tajribalari bilan aloqadorlikda taraqqiy etayotganligi. Istiqlol davri adabiyotning vujudga kelishi va uning tarixiy-estetik ahamiyati.

O‘zbek she’riyatida yangicha ifoda usullari va badiiy tadqiq yo‘llarining kashf etilayotganligi. Mustaqillik davri she’riyatida taniqli ijodkorlar safida ko‘plab yosh iste’dodlarning faol ishtirok etayotganligi. Ular ijodida inson, dunyo va abadiyot muammolarining ko‘plab qirralari butun murakkabligi bilan ifodalanayotganligi.

Hozirgi kunda ijod qilayotgan O‘zbekiston xalq shoirlarining she’rlaridan ayrim namunalar(parchalar).

Mustaqillik davrida nasr.

XX asr o‘zbek adabiyotining dunyo adabiy jarayoniga uyg‘unligi. Adabiy jarayonni tashkil etuvchi ijodkor – badiiy asar – o‘quvchi(tanqidchi) o‘zlaridagi o‘zaro munosabatlarning faollashuvi. Jahon adabiyoti saboqlari, xalq ijodi va mumtoz adabiyotimiz ilg‘or an’analaridan oziqlanish hozirgi adabiy jarayonni harakatga keltirib turuvchi omillar ekanligi. Adabiyotimizning milliy o‘ziga xosligi saqlangan holda voqelikni badiiy idrok etish va tasvirlashda yangi-yangi shakllarning ifoda etilishi. Adabiyotda ijobiy va salbiy obrazlar emas, balki butun murakkabligi bilan inson obrazi turganligi, unda insonga, vatanga va fidokor xalqqa muhabbat tuyg‘ularining ustivor tamoyilga aylanganligi.

Hozirgi o‘zbek nasri rivojida taniqli nosirlar bilan bir qatorda yosh adiblarning qo‘shayotgan hissalari. Prozada inson ma’naviyati sarhadlarini yangicha qamrov, yangicha estetik sathlarda o‘lchashga intilishning vujudga kelishi. Nasrimiz badiiyati sathlariing rang-baranglanishi.

Hozirgi kunda ijod qilayotgan O‘zbekiston xalq yozuvchilarining asarlaridan ayrim namunalar(parchalar)

Mustaqillik davri dramaturgiyasi

Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasi jahon va milliy dramaturgiyamizning eng yaxshi an’analarini davom ettirayotganligi. Bu jarayonda qalamkashlarning tutgan o‘rni.

Hozirgi o‘zbek adabiy jarayonida hayotni, voqelikni nisbiy tugallangan, mafkuraviy baholangan kesimlarda emas, balki davom etayotgan jarayon sifatida aks ettirish tamoyilining yetakchilik qilishi. Hozirgi o‘zbek adabiyotiga xos ikkinchi estetik tamoyil adabiyotning bosh predmeti bo‘lmish insonni faqat salbiy yoki ijobiy nuqtai nazardan emas, balki borligicha – bir butun va yaxlit holda badiiy tadqiq etishdan iboratligi. Hozirgi adabiyotimizda voqelikni kitobxonga tayyor xulosalar tarzida yetkazib berish asosiy tamoyil emasligi.

Dramatik asarlardan ayrim namunalar(parchalar).

JAHON ADABIYOTI

(6 soat)

A.P.Chexov. “Garov” hikoyasi

A.P.Chexov rus adabiyotining taniqli vakili**.** Uning hikoyalarida inson tabiatining xilma-xil qirralarining tasvirlanishi. Yozuvchining “Garov” hikoyasi talqini va undagi yetakchi qahramonlar tavsifi. A.P.Chexovning hikoyachilikdagi o‘ziga xos mahorati.

Rishod Nuri Guntekin. “Choliqushi” romani.

Rishod Nuri Guntekinning hayoti va ijodi. “Choliqushi” romanida tasvirlangan muhit. Feride obraziga xos bo‘lgan insoniy fazilatlar. Adibning tasvirlash mahorati.

Nazoart ishi: 2 soat

Xulosa.

XX asr o‘zbek adabiyotining estetik saboqlari, erishgan yutuqlar va nuqsonli jihatlar. Ikki ming yillik o‘zbek adabiyotining XX asrda jahon adabiy jarayonining tarkibiy bir qismiga aylanganligi va o‘zga xalqlar badiiy tajribalari bilan aloqadorlikda taraqqiy etishi. Asr so‘nggida istiqlol davri adabiyotning vujudga kelishi va uning tarixiy-estetik ahamiyati.

Mavzularni rejalashtirish

T/r	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
Ona tili				
1.	Muhabbat o‘zi nima?	2	1	1
2.	Jamiyatning bir bo‘lagiman	2	1	1
3.	Huquqdan burchgacha	4	2	2
4.	Men va boshqalar	2	1	1
5.	Ruhiy tarbiya	2	1	1
6.	Tilim - boyligim	4	2	2
7.	Fan va texnologiyalar	4	2	2
8.	Boy bo‘lsam...	4	2	2
9.	Kino sanoati	6	3	3
10.	Tabiat va inson	2	1	1
11.	Kirish. O‘zbek tili va uning taraqqiyoti	2	1	1
12.	Nutq madaniyati	2	1	1
13.	Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar	2	1	1

14.	Nutqning to‘g‘riligi	2	1	1
15.	Nutqning aniqligi	2	1	1
16.	Nutqnimng mantiqiyligi	2	1	1
17.	Nutqning sofligi	2	1	1
18.	Nutqning boyligi	2	1	1
19.	Nutqning jo‘yaliligi	4	2	2
20.	Nutqning ifodaliligi	4	2	2
21.	Nutq madaniyati va nutq texnikasi. Ish yuritish	4	2	2
	Jami	**60**	**30**	**30**
Adabiyot				
1.	Xalq og‘zaki ijodi va qadimgi adabiyot namunalari	12	6	6
2.	O‘rta asrlar adabiyoti manzaralari	10	5	5
3.	XVIII-XIX asrlar adabiyoti manzaralari	16	8	8
4.	XX asr adabiyoti manzaralari: XX asrning boshi	12	6	6
5.	Xalq og‘zaki ijodi	4	2	2
6.	Qadimgi turkiy adabiyot	8	4	4
7.	O‘zbek mumtoz adabiyoti	14	7	7
8.	Yangi o‘zbek adabiyoti	10	5	5
9.	Mustaqillik davri adabiyoti	8	4	4
10.	Jahon adabiyoti	6	3	3
	Jami:	**100**	**50**	**50**
	Umumiy:	**160**	**80**	**80**